

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MAMLUK KUTUBHOLASI
INV. №

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiga boshlagan

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

2009-yil
21-dekabr
N:51
(66748)

ISSN - 2010-6092



Farg'ona
viloyati Xalq
ta'limi boshqarma
boshlig'i
Zikrilla TESHABOYEV
«Tong yulduzi» gazetasining
har bir sonini mumtazam
kuzatib boradi

Suratda: Farg'ona shahridagi
9-maktabning 9-sinf o'quvchilari
ustoz bilan muloqotda

4 - 5 - betlar

Yo'llbars yili
kimga qanday
keladi?

3 - bet

Chillik o'yini

7 - bet

SAM'LALARDA

Anvar SANAYEV
nechta she'r
biladi?

8 - bet

- Ha-ha, ishona-vering, litseyimizing a'luchi o'quvchilaridan biri Gulnoza Isroilova o'qishini Hindistonda davom ettiradigan bo'ldi, - deydi faxr bilan TDTU qoshidagi 5-akademik litseyning 307-guruh o'quvchisi Nodira JUMANIYOZOVA.



— Biz qizlarning orasida hind kinolarini sevib, maroq bilan tomosha qilmaydiganlar uchramasa kerak. Lekin ishqibozlik borasida dugonam Gulnozaning oldiga tushadigani yo'q edi. U hind kinolarini

maroq bilan tomosha qilibgina qolmay, qo'shiqlarini ham xirgoyi qilib yurardi. Hind kino-yulduzları suratlarini yig'ish eng sevimli mashg'uloti edi. Ulg'aygani sari undagi bu qiziqish havasga aylana bordi.

jozibador tilni mukammal o'rganishga bel bog'ladı.

2009-yilning iyun oyida respublika miqyosida o'tkazilgan hind tili ko'rik-tanlovida faxrli 1-o'rinni egallab, Hindistondagi «Agra Sanstxan»diy o'quv yurtiga o'qishga qabul qilindi.

Gulnoza kelajakda elchi bo'lib, O'zbekiston – Hindiston munosabatlarini yanada mustahkamlashga hissa qo'shishni niyat qilgan.

LITSEYIMIZ KUNINI NISHONLADIK

Litseyining ham kuni bo'larkanmi, deysizmi? Albatta, bo'ladi. Yaqinda biz tahsil olayotgan S.H.Sirojiddinov litseyi kunini keng nishonladik. «Litseyim – faxrim» shiori ostida o'tgan mazkur bayramimiz barchamizda unutilmas taassurot qoldirdi.

Bayramda fanlar olimpiadasi, qiziqarli ko'rinishlar namoyishi bo'lib o'tdi. Fanlar olimpiadasida shahrimizdagи akademik litseyiar hamda kasb-hunar kollejlariда tahsil olayotgan bilimdon tengdoshlarimiz ishtirok etishdi.

Bayramga tashrif buyurgan mehmonlarni zeriktirmaslik



uchun o'quvchilar qiziqarli bellashuv tashkil qilishdi. Hatto ustozlarimiz ham o'zaro bellashishdi. Ishtirokchilarning

aytishuvlari, musiqiy chiqishlari bayramga o'zgacha ruh baxsh etdi.

Sokina BAHODIROVA

Men 28 yildan bu-yon bolajonlar davrasidaman. Ular bilan vaqt o'tganini sezmay ham qolaman. Har bir tadbirlarimda o'quvchilarim, ota-onalar faol ishtirok etishadi. Ba'zan shu kasbni tanlab adashmaganimdan xursand bo'laman.

Dekabr – maktabimizda boshlang'ich sinflarda fan oyligi deb e'lon qilindi. Mening 2-«A» sinf o'quvchilarim ko'plab tadbirlarda faol ishtirok etishyapti. Muxlisa Abdug'aniyeva, Nozima Zufarova, Diyora Tursunova, Farruxjon Nig'monovlarning Vatan, do'stlik, tinchlik haqidagi she'r va qo'shiqlari barcha tinglovlarning



manzur bo'lyapti. Ayniqsa, Bosh qomusimiz haqidagi savol-javoblari, viktorina o'yinlari o'quvchilarni qiziqtiriyapti.

Mavluda BO'RIYEVA,
poytaxtimizdagi 269-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

2-«A» NING YUTUG'I

Shu maqsadda mana ikki yillardiki, poytaxtimizda faoliyat ko'rsatayotgan «Lal Bahodir Shasti» nomidagi Hindistondan madaniyat markaziga qatnab, ustozlari Bayot Rahmatov, Mavjudha Sodiqova, Ulfat Uchqunovlar ko'magida bu

BILASIZMI?


Bolalar sevib minadigan velosiped 1888-yilda Jon Boyd Danlop tomonidan yog'ochdan yasalgan. Ammo uning g'ildiragi va shinasi temirdan edi. 1900-yilda esa hozirgi kundagi velosiped yuzaga keldi.

Dunyoda shunday daraxtlar ham borki, ularning rangi har xil. Obnus shunday daraxtlardan biri. Bu nomning o'zi «qora» so'zining sinonimidir.

Bu daraxt Yamaykada yashil, Hind okeanining Maskaren orolida og, Antil orolida esa sariqdir.

Jirafa bo'yni juda uzunligini hamma yaxshi biladi. Ko'pchilik oldi oyoqlari ham uzun deb o'ylashadi. Lekin uning oldi oyoqlari bilan orga oyoqlarining uzun-kalta teng ekan.

Italiyaning Sitsiliya hududida Etna tog' yonbag'rilarida kashtan daraxtlari o'sadi. Bu daraxtlarning yoshi ikki ming yil bo'lib, tanasining aylanasi 20 metrga yetadi.



davom etmoqda. Ba'zi joylarda xazonlarni yoqib yuborilyapti. Bu esa tabiatga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi.

Qadrli o'quvchilar! Biz ham kattalarga, farroshlarga ko'maklashaylik. Atrofimizni – maktabimiz va uyimizni, bog'i-miz-u ko'chamizni o'z vaqtida tozalab, supurib, saranjom qilsak, ayni muddao bo'lardi.

Nasiba TO'YBOYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 4-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi

Lev Tolstoy YOVUZLIK



Olmaxon shoxdan shoxga sho'x-shodon sakrab yurgan edi, birdan mudrayotgan bo'rining oldiga

YO'LBARS YILI

KIMGA QANDAY KELADI?

Sharq taqvimi bo'yicha 2010-yil Yo'lbars yili deb belgilangan. Bu muchalda tug'ilgan insonlar omadli, ta'sirchan va hissiyotga beriluvchan kishilardir. O'zgalarga itoat etishni yoqtirmasalar-da, aytgalarini qildirishni xush ko'radilar. Ular tabiatan kura-

shuvchan va biroz jizzaki-roq bo'lib, ko'zlagan maqsadlariga erishmay qo'yaydilar. Hayotda biror ishni boshlashdan oldin yaxshilab o'ylab ko'rish va dono maslahatlarga qulog solishning uddasidan chiga olishsa, kattakatta muvaffaqiyatlarga

erishadilar. Bu muchal sohiblaridan yaxshi rahbarlar yetishib chiqadi. Dastlabki hayotlari osuda va halovatli kechadi. Keyinchalik kuchli va shiddatli kechin-malarni yenga olsalar, qolgan umrlari tinch va xotirjamlik bilan o'tadi.



Sichqon yilda tug'ilgan insonlar uchun Yo'lbars yili xavfsiz kelishi kutilmoqda. Kelayotgan Yangi yilda o'z maqsadlari sari olg'a intilish ularga omad keltiradi.

Sigir yilda tug'ilgan insonlar uchun 2010-yil tinch va osuda kechadi. Orzulari ro'yobi asta-sekinlik bilan ushalishi uchun ulardan sabrli bo'lish talab qilinadi.

Yo'lbars yilda tug'ilgan insonlarga 2010-yil omadli keladi. Kelayotgan Yangi yilda qanday ishga qo'l urmasinlar, barcha ishlari baroridan kelishi kutilmoqda.

Quyon yilda tug'ilganlar 2010-yilda o'ta ehtiyojkor bo'lishlari lozim. Shu bilan birga, ularga turli xil ko'ngilsiz voqealardan uzoq-roq yurish tavsiya etiladi.

Baliq yilda tug'ilgan insonlar uchun Yo'lbars yili ko'n-gildagidek o'tadi. Ular Yangi yilda o'z iqtidorlarini namoyon etib, birmuncha muvaffaqiyatlarga erishadilar.

Ilon yilda tug'ilgan insonlar kelgusi yilda faollikni qo'ldan bermasalar, ko'p narsaga erishadilar.

Ot yilda tug'ilgan insonlarning niyatlari 2010-yilda oson-gina ushaladi. Yangi yil ularga omadli kelishi kutilmoqda.

Qo'y yilda tug'ilgan insonlar uchun Yangi yil mazmunli o'tishi ularning harakatlariga bog'liq bo'ladi. Bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazish ularni zerikib qolishdan yiroqlashtiradi.

Maymun yilda tug'ilgan insonlarga kelayotgan Yangi yil taassurotlarga boy bo'ladi. O'z qiziqishlariga berilib ketmay, vaqtlarini reja asosida o'tkazish ularga omad keltiradi.

Tovuq yilda tug'ilganlar 2010-yilda o'z ishlariga mas'uliyat bilan yondashsalar, omadsizlikdan yiroq bo'ladilar.

It yilda tug'ilgan insonlar uchun kelayotgan Yangi yil oson kechishi kutilmoqda. Buyilda ular o'zlarini xotirjam his etadilar va o'z iqtidorlarini to'la namoyon qila oladilar.

To'ng'iz yilda tug'ilgan insonlar 2010-yilda o'zgarayotgan sharoitlarga moslashishlari tavsiya etiladi. Shundagina ular ko'zlagan maqsadlariga yetadilar.

TEST

1. Ko'p ma'noli so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) go'zallik, ko'zlar;
- B) ko'zlar, bog'lar;
- C) hozir, beda;
- D) barkamol, ko'zlar.

2. Ma'nodosh so'zlar qaysi qatorda berilganini toping.

- A) tuz, bog', gul;
- B) yaxshilik, yomonlik, ko'p;
- C) botir, jasur, qahramon;
- D) tub, tup, tuz, tus.

3. So'z tarkibi nimalardan iborat?

- A) asos va qo'shimchalardan;
- B) faqat asosdan;
- C) asos va nisbat qo'shimchalaridan;
- D) asos va ko'plik qo'shimchalaridan.

4. Tub so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) quyosh, serquyosh, choy;
- B) tosh, temir, quyosh;
- C) guldon, ixtiro, dorboz;
- D) ohangdor, kitob, gulchi.

5. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalar qatorini toping.

- A) -kor, -bon, -lar;
- B) -chi, -roq, -xon;
- C) -lar, -cha, -xon;
- D) -roq, -cha, -chi.

6. Sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar berilgan qatorni toping.

- A) egalik, kelishik, shaxs-son qo'shimchalar;
- B) ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalar;
- C) nisbat, so'z yasovchi, ko'plik qo'shimchalar;
- D) kichraytirish, nisbat, ko'plik qo'shimchalar.

7. Mustaqil so'zlar berilgan qatorni toping.

- A) olim, haqida, chiroqli;
- B) ilm, beshta, orqali;
- C) ayol, o'sha, mangu;
- D) ustoz, bilan, kitob.

8. Qaysi qatorda harakat fe'llari berilgan?

- A) qizardi, yugurdi;
- B) topdi, yozdi;
- C) qichqirdi, o'yldi;
- D) chizdi, xayol surdi.

9. Holat fe'llarini toping.

- A) o'qidi, gaplashdi;
- B) o'yldi, mudradi;
- C) yugurdi, tafakkur qildi;
- D) qimirladi, sarg'aydi.

10. O'timli fe'llarini toping.

- A) ko'rdi, o'qidi;
- B) jilmaydi, kiyindi;
- C) quvondi, joylashdi;
- D) jiringladi, almashdi.

INTERNET XABARLARI

Londonlik o'quvchilarga darslarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun so'nggi rusumdag'i iPhone uyali telefonlari berilmoqda. Britaniya

ning «The Daily Telegraph» gazetasining xabar berishicha, bu telefonlarda Mendeleyev jadvali hamda Shekspir asarlari dasturlashtirilgan. Telefonga joylashtirilgan

ushbu dasturlar o'quvchilarga tarix va algebra fanlarini churq o'rganishlarida yordam beradi. Rejaga ko'ra, maktab rahbariyati tomonidan o'quv-

chilarning telefondan foydalanishlari nazorat qilinib, darslarda barcha telefonlarning ovozi o'chirib qo'yiladi.

uchun bo'ri uni qo'yib yubordi. Olmaxon shu zahotiyoyq lip etib daraxt shoxiga chiqdi-da, shunday dedi:

- Sen doimo qovog'ingni solib yurasan, niyateng yovuz. Yirtqichligindan tishlaring g'ijirlab turadi. Shuning uchun ham hech qachon quvnoq bo'lolmaysan va zerikib yurasan. Yirtqichliging yuragingni siqib turadi. Biz olmaxonlar esa hech bir jonzotga yomontlik qilmaymiz. Hamisha o'z ishimiz bilan bandmiz, xushmuromala va quvnoqmiz. Shu bois, hech qachon zerikmaymiz.

QAT'IYAN MAN ETILDI

Permda sodir bo'lgan yong'in dan so'ng pirotexnika vositalining sotilishi qat'yan man etildi. Shu bilan birga, Moskvdagi saydo ra'stalari hamda do'konlar nazoratga olingan bo'lib, ushbu vositalarni sotayotgan va xarid qilayotgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilmoqda. Tunggi klublar va restoranlarda ham barcha tadbir va bayramlar Bengal olovlarisiz o'tkazilishi tekshirilmoqda. Hatto Yangi yil kechasida ham pirotexnika vositalarining har qanday turidan foydalanish taqilganadi.

Zahro HASANOVA tarjimasi

kelib tushganini o'zi ham bilmay qoldi. Uyqusi buzilgan bo'rining jahli chiqdi va uni yeyishga shaylandi. Olmaxon unga yalina boshladi:

- Iltimos, meni qo'yib yubor.

Bo'ri esa: - Yaxshi, men seni qo'yib yuboraman, faqat ayt-chi, nima uchun siz olmaxonlar hamisha quvnoqsiz? Yuqorida o'ynab-quvnab, sakrab yurasizlar? Men esa doim tundan zerikaman, ko'nglim hecham yorishmaydi.

- Avval meni qo'yib yubor, anavi shoxga chiqib olay, keyin aytaman. Bo'lmasa sendan qo'rqa yapman, - dedi Olmaxon.

Savoliga tezroq javob olish



JONKUYAR ANVAR AKA

Har gal vodiya yo'limiz tushsa, Andijon viloyati, Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinsbosari, Davlat ta'lim standartlari monitoring bo'limining boshlig'i Anvar MAMAJONOVga uch rashmay qaytmaymiz. Sababi, u zahmatkash inson bolajonlarning eng yaqin do'sti, ustozlarning jonkuyaridir. Shu sababdanmi, gazetamizing vodiylilik muxlislari talaygina.

O'quvchilarga mehr buloqlari-yu hayot saboqlaridan ma'rifat nurlari yog'ilayotgan ustoz Anvar aka kabi fidoiylar vodiya ko'plab topiladi. Barkamol avlod tarbiyasida yelib-yugurayotgan bolajon ustozlar omon bo'isni.

XAKANDACI

MAKTABDA

Andijonni shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning sog'inch maskani deya e'tirof etamiz. Bu shaharda benazir, betakror iste'dodlar kamolga yetishdi.

Xakan ham tarixiy qishloq. Bu yerda 44-maktab joylashgan. O'quvchilarning qalbidan she'riyat daryosi oqadi. Ustozlari shogirdlari bilan faxlanish tuyg'usini ustun qo'yadilar. Maktab 1971-yilda ishga tushgan. Hozir bu yerda 693 nafar o'quvchilar ta'lim-tarbiya oladilar. Ularga 42 nafar tajribali ustozlar bilim berib kelyaptilar.



YUZ YOSHLI KUTUBXONA

Andijon shahrida joylashgan Bobur nomidagi Axborot-kutubxona markazidan tayyorlangan fotolavhalrimizni ko'rgach, shuhbalaringizni tumandek tarqab ketishiga amin bo'lamiz. Yuz bilan yuzlashgan ushbu qutlug' dargohda kutubxona ishlarining xizmati beqiyosligiga guvoh bo'ldik. Kompyuterlar salida kitobxonalar uchun barcha quayliklar yaratilgan. Tez va sifatlari xizmatdan katta-kichik teng bahra olishadi.



Yaqinda jurnalist bobon-giz Po'lat Hamdamov yuksak xizmatlari uchun «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlanildilar.

Mukafot muborak bo'lsin! Sizga sog'lik+ salomatlik, ijodingizga barakot tilayit, deb

JAMOA

MARG'ILONNING GULSHANLARI

Abdurahmon AKBAR, bolalar shoiri, Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi muharriri:

- Farg'onalik yoshlarining mashqlari mahsuli jamlangan «Marg'ilon gulshan» nomli she'riy to'plamining taqdimotidan olgan taassurotlarimni ancha vaqtgacha umuta olmasdan kerak.

Birinchi olgan sabog'ini shu bo'ldiki, ijodkor xalqi asar yozish bilan birga, shogirdparvar ham bo'lishi kerak ekan. To'plamni nashrha tayyorlagan Ismoil Mahmud Marg'ilonining sa'y-harakati bilan dunyo yuzini ko'rgan bu kitob menda ham to'garagim o'quvchilarini ijodini to'plab, kitob holida nashr etish istagini uyg'otdi.

Shoir Ismoil Mahmud ijodi bilan ko'pdan tanishman. U kishining Marg'ilon shahrida tashkil etgan «Jahon Otin Uvaysiy» uy-muzeysiда faoliyat ko'satayotgan «Uvaysiy» nomli adabiy to'garagini tashkil etganiga 10 yil to'libdi. Xuddi bolalar kabi beg'uborlarning to'garak a'zolarini orzular olami tark etmasin.



TAKRORLANMAS TUYG'U

Dunyoda takrorlanmas bir tuyg'u bor. Bu Vatan mehridir. Bor kuchimizni, g'ayratimizni Vatan himoyasiga, uning ravaqaiga, baxt-sodatiga sarflash biz yoshlarning oly burchimiz.


Go'zaloy ERGASHEVA,
Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi
62-maktab-internatinining
11-sinf o'quvchisi

YURTNING YURAGI BOR

Yangi 2010-yilimiz yurtboshimiz tomonidan «Barkamol avlod yili» deb e'lon qilindi. Bu bizlarni yanada ruhlantirib yubordi. Ko'proq o'qishimiz, izlanishimiz kerakligini anglatdi.

Yurtning yuragi bo'lmish biz yoshlar, albatta, ajdodlarimiz kabi ulug' ishlarni davom ettirishga qodirmiz.

Madina HASANOVA, Xumora NAZAROVA,
Abror HAKIMJONOV,
Farg'ona shahridagi
9-maktabning
9-«V» sinf
o'quvchilari



Qadrli bolajonlar! Avvalo, sizga va oolangiz a'zolariga Yangi yil tabrigimizni armug'on etamiz. Yangi yil ostonasida vodiylilik do'stlarimiz bilan diyordorlashib zavq oldik. Safar davomida yangi do'stlar orttirdik. Maktablardagi, litsey- kollej ya maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazilgan barcha uchrashtuvlarda sizning quvnoq nafas ovozingiz, beg'ubor dil toringiz, samimiy va dilbar so'zlariningiz bizni xushnud ayladi.

Kuyning avjari kelajakning buyuk ostonasi aro dadil qadam tashladik. Bir so'z bilan ayganda, ushbu xizmat safarida yangi avlodning mehri bilan yashadik, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi...



Niholning qizlari – Naima, Ra'no, Xadicha, O'g'liy, Umrinisa xorazmcha raqsni qoyillatishdi.

RAQSNI QOVILLATISHDI

Namangan shahridagi 17-maktabgacha ta'lim muassasasida «Nihol» nomli ashula va raqs dastasi faoliyat yuritadi. Dastaning jajjilarisiz viloyat miqyosida biror-bir tadbir o'tkazilmaydi. Quvnoq bolalarining yangroq kuy-qo'shiqlari hamisha tuman va shaharlarda han o'z muxlislарini topgan. Bolajonlarning sevimli ustozlari – dasta rahbari Gulchereha opa Abdullayeva guruhdagagi 30 nafar o'g'il- qizlarga ma'naviy va madaniy merosimizni o'tqatishda tinmay izlandi. Albatta, intilishlar samarasini besmar ketayotgan yo'q. Bugun «Nihol»ning umidli san'atscevarlari harakatidagi dadillik, katta sahnaga yo'l olishiga shubhamiz yo'q.

Feruza SOYIBJON qizi,
Ma'mura YIGITALI qizi,
Toshkent- Andijon-Farg'ona-Namangan-Toshkent





2009

Tong yulduzi
21-dekabr

Osmon kulib, ko'z yoshini oppoq qorga alishar

JANJAL NIMADAN CHIQQAR?

O'LKAM TAROVATI



Beqiyosdir ona yurtimiz.
Shaharlar-u bog'lari bilan.
Sarhad bilmas cheksiz dalalar
Toqqa chiqar so'qmoqlar baland.

Janjallahib qolishdi, hatto
Sal qoldi musht tushirishga ham.
Shunda Zuhra dedi: – Yo'q joydan
Chang chiqarmoq yarashmas hech ham.

Biling, kim haq yoki nohaq kim?
Jahlingizni bosing va bekor
Uzmang do'stlik rishtalarini,
Do'stlikning ham o'z nizomi bor.



SHODLIK BIZGA YARASHSHAR!

Ko'kka yetar ovozim,
Hurlik baxtin kuylayman:
Qo'limda yangrar sozim,
Yurtim madhin kuylayman.

Har bir ko'ngil quvonib,
Orzuga to'lib yashar.
Yurtim ishqingda yonib,
Yashash bizga yarashar.

Tufonlarni tuzatib,
Istiqlolga etding sen.
Ulug' kunlarni kutib,
Qancha zahmat chekding sen.

Bu kun ona xalqimiz,
Tinch-u ahil yashashar.
Tog'dan baland ko'ksimiz,
Shodlik bizga yarashar.

Ro'ziqul OTAMUROD,
Qashqadaryo viloyati, Chiroqli
tumanidagi 122-maktab o'qituvchisi



KO'Z TEGMASIN

Go'zal yurtim, ozod yurtim,
Har go'shasi obod yurtim.
Farzandlari mard va jasur,
Kelajagi porloq yurtim.

Xalqi totuv, ahl, o'ktam,
Sabr-qanoatlari har dam.
Tuprog'iga quyosh hamdam,
Hech kimdan kam bo'lmas yurtim.

Bobolardan meros bo'lgan,
Mehri ziyo Samarqandim.
Oqsaroy-u Registondan,
Loldir dunyo ahli yurtim.

Ko'z tegmasin senga aslo,
Ona yurtim jonim fid...

Nozima FAYZULLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
Alisher Navoiy nomli I-maktabining
3-sinf o'quvchisi

BU BETAKROR FASLLAR

Shamol uchqur kiyik kabi shoshib-shoshib esadi,
Barglar esa ma'yus boqib, yer bag'rini o'padi.
Daraxtilar ham sovgotgandek, biroz tirib turadi,
Osmon esa qovoq uyib, ko'z yoshini to'kadi.

Soyabonlar quchoq ochib tomchilarni qarshilar,
Odamlar ham yugurishib, qayergadir shoshilar.
Osmon kulib, ko'z yoshini oppoq qorga alishar,
Eh, buncha tez o'tib ketar bu betakror fasllar!

Gulasal SHODMONOVA

Raim FARXODIY

Oz-oz o'rganib, dono bo'lur

DIOGEN KIM BO'LGAN?

Bu savolga kattalar darhol javob berishi mumkin, chunki ular bu odam haqida maktabda, oliv o'quv yurtida o'qishgan, bilishgan. Lekin siz hali o'quvchisiz, ko'p narsalarni o'rganishingiz kerak. Shu bois, Diogen bilan sizlarni tanishtirib, uning o'gitlarini o'qib ko'rishingizni maslahat beramiz. Zero, hayot yo'llarida uning pand-nasihatlari, hayot saboqlari sizga asqotishi mumkin.

QISQACHA TARJIMAI HOLI

Diogen (Diohen) yunon faylasufi, miloddan avvalgi 400-423-yillarda yashagan. Faqirlikda kun kechirgan. Aytishlaricha, darz ketgan sopol xum unga boshpana vazifasini o'tagan. Uning «Sevgi haqida», «Davlat», «Edip» va «Fojia» asarlari ma'lum.

VATANDOSHLAR BAHOSI

Vatandoshlari unga atab misdan yodgorlik buniyod etganlar. O'zi yashab o'tgan Sinop shahridagi mazkur yodgorlik poyida shunday so'zlar yozilgan:
«Diohen! Yillar to'foni tosh va bronzalarni ham yemirib tashlaydi. Ammo sening ta'limoting mangu qolajak. Sen bizni qanoat qilishga o'rgatding hamda baxtgá eltuvchi yo'lni ko'rsatding!»

SADAQA

Diohen bir xasisdan sadaqa so'radi. Uning ikkilanib turganini ko'rib: «Men sendan non uchun sadaqa so'rayapman, sag'ana uchun emas!» – dedi achchig'i chiqib.

JAVOB SO'ZI

Bir kimsa dedi:

– Meni falsafang bilan ishim yo'q!

Diohen unga tanbeh berdi:

– Yaxshi yashash haqida qayg'urmas ekansan, yashashdan maqsad ne?

KAMSITILGAN FAYLASUF

Bir kishi Diohenni ko'rib, uni izza qildi:

– Seni quvg'in qilishgan ekanmi?

Diohen shu zahoti javob qildi:

– Ana shu quvg'in tufayli mash-hur faylasuf bo'l-ganimni bilasanmi, nodon!



NING TASHVISHLARI

Diohen tilshunoslarning Odissey musibatini tadqiq etib, o'zlarining dardlaridan voqif bo'lmaslarini, musiqachilarning torlarini sozlab, o'zaxloqlarini tuzata olmaslarini, riyozatchilarning esa osmondagи Oy va Quyoshni kuzatib, oyoqlari ostida nima borligini ko'rmasliklarini tushunolmasdi.

BOSHQA NARSAM YO'Q

Iskandar Zulqarnaynning otasi Makedoniya hukmdori Faylaqus Koringa qarshi yurish boshlaganini e'lon qilganda, Diohen o'zi yashaydigan xumni qimirlata boshlabdi. Bundan hayron bo'l-ganlar undan: «Nima qilyapsiz?» – deb so'rabidi.

– Hozir hamma o'zining tashvishi bilan ovora. Shunday paytda bekor o'tirishim yaxshi emas. Xumni dumalatishimning boisi, shundan boshqa hech narsam yo'q-da!





2009

Tong yulduzi
21-dekabr

Chillik o'yini yoshlarga, ayniqsa, bolalarga xos bo'lib, u qadimdan meros bo'lib kelmoqda

Qadrdon gazetam!

Men sportni sevaman! Sport jurnalisti bo'lmoqchiman. «Chillik o'yini» haqida eshitganman, lekin tartib-qoidalarini bilmayman. Shu to'g'rida ma'lumot bersang, minnatdor bo'lardim.

Murodjon QOSIM o'g'li,
Samarqand

CHILLIK O'YINI

Chillik o'yini yoshlarga, ayniqsa, bolalarga xos bo'lib, u qadimdan meros bo'lib kelmoqda. Asosan, o'yinda ikki kishi ishtirok etadi. Birinchi ishtirokchining qo'lida uzunligi bir mert (dasta), ikkinchi-sining qo'lida esa uzunligi 20-25 santimetrl keladigan tayoqcha (chillik) bo'ladi. O'yin ishtirokchilari tekis joyda diametri yarim yoki bir metrcha keladigan doira shaklida aylana chizib olishadi. Bu aylana o'yinda «yalov» deyiladi. Kim o'yinni birinchi boshlashi uchun shart qo'yiladi. Shart shundan iborat bo'ladi: tayoqchali bola tayoqchasining bir uchidan mahkam ushlab turadi, ikkinchi bola esa qo'lidagi o'z tayog'i bilan uning ushlab turgan tayoqchasiga uch marta uradi. Agar uch zarba ichida qo'lidagi tayoqchani chiqarib yuborsa, shartga binoan yutqazgan bo'ladi. Uch zarbada ham tayoqchani qo'lidan chiqarib yubormay saqlab qololsa, g'olib hisoblanadi. Shartga ko'ra g'olib bo'lgan bola o'yinni birinchi bo'lib boshlaydi.

Endi o'yin tartibi haqida: ishtirokchilar avval tayoqchaning bir uchidan 3-4 santimetr keladigan joyini yarim kesib olishadi. Kesib olishlaridan maqsad, tayoqcha tekis yerda yotgan paytda kesilgan tomonga tayoq bilan urilsa, tayoqchaning yuqoriga ko'tarilishi oson bo'ladi. Ayrim joylarda bolalar tayoqchaning bir uchidan yarim kesib olmay o'ynaydilar. Ular chizishgan «yalov» markazida uzunchoq shaklida chuqurcha yasashadi. Shu yasalgan chuqurchaning

ustiga tayoqchani ko'ndalang qilib qo'yishadi. Keyin tayoqning bir uchini chuqurchaga tiqib, yuqoriga siltaydi va ko'tarib zarba uradi. Tayoqcha «yalov» dan ancha nariroqqa uchib borib tushadi. Ikkinci ishtirokchi tayoqchani tushgan joyidan «yalov»ga qarab irg'itadi. Agar tayoqcha «yalov» ichiga yoki «yalov» chizig'idan o'lchanganda ham tayoq yetadigan joygacha borib tushsa, o'yinni tayoqchani irg'itgan bola bo'shidan boshlaydi. Tayoqcha «yalov» chizig'idan ancha o'tib yoki «yalov» chizig'idan tayoq bilan o'lchanganda ham tayoq yetmaydigan joygacha borib tushsa, unda o'yinni boshlagan bolaning o'zi davom ettiradi.

Demak, o'yin davom etayapti, ishtirokchilar marranning uzoqlik masofasini keli-shib olishadi. Masalan, marra masofasi yuz qadam deb olinsa, o'yinni davom etti-rayotgan bola tayoq bilan «yalov» markazidan tayoqchani zarb bilan uradi. Tayoqcha borib tushgan joyidan yana uradi va yana tayoqcha borib tushgan joyidan uchinchi marta ham zarb bilan uradi. Shundan keyin «yalov» chizig'idan to tayoqcha borib tushgan joyigacha qadar qadamlab o'lchab chiqishadi. O'lchov yuz qadam chiqmasa, tayoqchani yana bir marta uradi. Agar o'lchaganlarida, maso-fa yuz qadam yoki undan ortiq chiqqandagina tayoqcha boshqa urilmaydi. O'yin qoidasiga binoan ikkinchi bola tayoqchani borib tushgan joyidan tishlab olib, to «yalov»gacha nafas olmasdan «zu-u-uv» degan tovush chiqarib yetib borishi shart. Agar yetib kelsa, o'yinni u endi o'zi boshidan boshlaydi. Yetib kela olmasa, yana o'yinni birinchi boshlagan bolaning o'zi boshidan boshlaydi.



YENGILMAS

KUCH

Maktabimizda «Milliy istiqlol g'oyasi» oyligi munosabati bilan turli tanlovlар o'tkazilmoqda. Shu munosabat bilan sinfimizda Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asari asosida «Ma'naviyatga tahdid - o'zligimiz va kelajagimiza tahdid» mavzusida ochiq tarbiyaviy soat bo'lib o'tdi. Bu darsdan so'ng biz ogohlilik, hushyorlik, Vatanga sadoqat haqida yana ham ko'proq ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ochiq dars davomida Vatan rivojida ma'naviy yetuk yoshlarning o'rni katta ekanligini anglab yetdik. Shuning uchun ham hozirdan yaxshi o'qib, mustaqil diyorimizning porloq kelajagi uchun o'z hissamizni qo'shishni niyat qildik.

Matluba HAITOVA,
Xiva shahridagi 2-umumta'lim
maktabining 9-sinf o'quvchisi

KUN


TARTIBI



Mening ismim Durdona. O'qish, matematika, musiqa fanlari jon-u'dilim. Raqsga tushishni, rasmlar chizishni yaxshi ko'raman. Oyijonimga uy ishlarida ko'maklashaman. Ustozimiz Svetlana Goryatovnaning eng yaqin yordamchisiman. Barcha ishlarni yakshanba kuni bir haftalik kun tartibimni tuzib olishga odatlanganman. Tag'in bu qiz buncha maqtanchoq ekan, deb o'ylamang. Siz ham kun tartibi tuzib,unga amal qilsangiz, mendan ham o'zib ketasiz.

Durdona TOSHMATOVA,
Chilonzor tumanidagi
rus tili faniga ixtisoslashitirilgan
164-maktab o'quvchisi

«PAQ-PUQ» DAN VOZ KECHAYLIK



Har yili Yangi yil yaqinlashishi bilan bolalarning mahallalarda, ko'p qavatlari atrofida paqillatishlari odatiy holga aylanib qolgan.

«Paq-puq» larning tevarak-atrofnlar zaraq keltiradigan ovozini eshitgan deyarli har bir inson uning kishi salomatligiga keltiradigan zararini o'ylab, doimo xavotirda bo'ladi. Uning salbiy oqibatlari haqida ko'p eshitganimiz. Ammo ayrim otonalarning e'tiborsizligi oqibatida bunday beboshliklar hamon davom etmoqda. Balki bu borada mahalla mutasaddilari ham e'tiborliroq bo'lislari lozimdir.

Qizig'i shundaki, mutasaddi davlat tashkilotlari tomonidan «paq-puq» savdosiga chek qo'yish borasida qat'iy chora-tadbirlar ko'rilib yotganiga qaramasdan, bu faoliyat butunlay barham topayotgani yo'q. Demak, ko'zlangan maqsadga erishish uchun barchamiz birdek harakat qilishimiz lozim.

R.MUHAMMADJONOV,
inspektor mayor

«Tong yulduzi» muxlislari men bilan muloqot qilib tursalar, yanada xursand bo'lardim

Qadrli bolalar! Tahririyatimizga kelayotgan mehmonlar bilan sizlarni tanishtirib boryapmiz. Bu gal taniqli xonanda Anvar Sanayev mehmonimiz bo'ldi.

Tahririyatimiz arxivini varaglab qarasak, ushbu xonanda haqida besh yil oldin muxlislarmizga ma'lumot bergan ekanmiz. Besh yil, albatta, qisqa davr emas. Shu yillar davomida xonandaning qo'shiqchilik sohasidagi tajribasi oshdi, muxlislari ko'paydi. Hayotida ham ancha o'zgarishlar ro'y herdi. Bu to'g'rida, albatta, bilishni xohlaysiz.

Suhbatda ishtirot etgan «Tong yulduzi» gazetasi hamda «Gulxan» jurnalining ijodiy jamoasi, yosh muxbirlarimiz xonandani turli savollarga ko'mib tashlashdi.



Anvar SANAYEV:

— Avvalo, yurtboshimiz tomonidan 2010-yilning «Barkamol avlod yili» deb nomlanishi barcha vatandoshlarimiz qatori meni ham bir ijodkor sifatida quvontirdi. Binobarin, biz san'atkorlarning, ayniqsa, milliy estrada yo'nalişidagi ijodkorlarning asosiy muxlislari yoshlardan iboratdir. Shu boisdan, yilning bu tarzda nomlanishi menga nafaqat shodlik, balki yuksak mas'uliyat yuklagandek bo'ldi.

Axtamqul KARIM, «Tong yulduzi» gazetasi bo'lim mudiri:

— Tahririyatimiza sizni nima yetaklab keldi?

— Bolalarni yaxshi ko'raman. Gazetaga ixlosim baland. Yangi yilda ularbop qo'shiqlar tayyorlash niyatim bor.

Muhabbat HAMIDOVA, «Gulxan» jurnali Bosh muharrir o'rinnbosari:

— Anvarjon, biz yaxshi bilamizki, har bir ijodkorning adabiyot, san'at sohasiga qadam qo'yishda bolalar nashrlarining alohida o'rni bo'ladi. Shaxsan sizning hayotingizda, bolaligingizda sizning hamsuh-batingiz, maslakdoshingiz bo'lgan

ANVAR SANAYEV NECHTA SHE'R BÖLADIR

bolalar nashrlaridan birortasini e'tirof eta olasizmi?

— «Tong yulduzi» gazetasi, «Gulxan» jurnalini sevib o'qiganman. Rasm chizishni yaxshi ko'rardim. Yodimda, 4-sinfda o'qiyotganimda, «Gulxan»ga chizgan rasmlarimni yuborganman. Tahririyatdan «Mashqlaringiz bo'shroq. Ko'proq o'z ustingizda ishlang», degan ma'noda maktub olganman. Bu xat meni yanada ilhomlantirgan. Xatni qo'limga olib, quvonganidam hamma-hammaga ko'rsatib chiqqanman.

Axtamqul KARIM:

— Ma'lumki, qo'shiqchilik san'ati jamoaviy tarzda yuzaga keladi. Uning muvaffaqiyatlari chiqishi uchun shoir, bastakor va ijrochi birdek mehnat qilishi lozim. Qolaversa, ularning fikri bir joydan chiqishi kerak. Shunday



o'quvchiga ham, tinglovchiga ham birdek ma'naviy ozuqa beradigan manbag'a aylanadi. Shuning uchun men shoirlarning ijodini birlamchi, deb hisoblayman.

Zuhra MUXSIMOVA, «Tong yulduzi» gazetasi xodimi:

— Anvar Sanayev nechta she'r biladi?

— 500 dan ortiq.

Shahlo INOMOVA, yosh muxbir:

— O'z ijodingizda qaysi shoirlarning she'rlaridan ko'proq foydalanasiz?

— Shu o'rinda faxr bilan bir narsani aytishni istardim. Mening padari buzrukvorim — Ismat Sanayev shoir sifatida san'at va adabiyot ahli orasida o'ziga xos mavqega ega. Shu boisdan,



bo'lsada, ayrim kishilar qo'shiqchilikda ohangni birinchi o'ringa qo'yadilar. Siz nima deb o'ylaysiz? Yaxshi qo'shiq uchun ohang birlamchimi yoki matn?

— Albatta, bu uchchala talab ham birdek qiymatga ega. Lekin men shaxsan o'zim ijodimdan kelib chiqib aytar bo'lsam, matn birlamchidir. Agar so'z tinglovchiga ta'sir qiladigan, ma'noli, jozibali, o'ziga xos va takrorlanmas tashbehlardan iborat bo'lsa, u, albatta,

san'atga ilk qadam qo'ygan kunlarimdan boshlab ko'proq otamning ijodiga murojaat qilaman. Qolaversa, barcha san'atkorlarning mavqeini ijodiy parvozini ta'minovchi mumtoz adabiyotimizning ulug' vakillari Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab, Bobur, Maxtumquli asarlarini alohida mehr bilan mutolaa qilaman.

Zamonaviy shoirlarimizdan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Abdusaid Ko'chimov, Iqbol Mirzo, Muhibbin Omon, Abdunabi Boyko'ziyevlarning lirik she'rlari alohida ohangdorligi, jozibasi,

falsafiy ruhiyati bilan ko'nglimga yaqin. Shu boisdan, ijodiy repertuarimda ularning ijodi ham o'z o'rniga ega.

Muhabbat HAMIDOVA:

— Tilga olib o'tgan zamondosh shoirlar bilan bevosita aloqadamisiz yoki kitob orqali muloqotdamisiz?

— Bu borada aynan bir xilda javob berishim qiyin. Ayrim shoirlar bilan albatta yuzma-yuz o'tirib ijod qilishimga to'g'ri kelgan. Ammo odatim, har oyda bir marotaba kitob do'koniga kirib, shoirlarning yangi she'riy kitoblarini xarid qilib, ko'nglimga yaqin, o'z tuyg'ularimga munosib va qo'shiqbop she'rlarni tanlayman.

Zubayda MAMATQULOVA, «Tong yulduzi» gazetasi xodimi:

— Faqat she'riy kitoblar o'qysizmi?

— Yo'q. Badiiy adabiyotning barcha janrlariga hurmatim baland. Masalan, Said Ahmadning «Ufq» romani, Ne'mat Aminovning «Elvizak» satirik qissasining mutolaasidan olgan taassurotlarim hamon ko'nglimda ajoyib tuyg'ular uyg'otadi.

Olovuddin ORIPOV:

— Shogirdlaringiz haqida ham gapirsangiz?

— Har bir viloyatda, har bir qishloqda, shaharda o'z shogirdlarim bor. Ular bilan doimo uchrashhib turaman. Hatto o'z internet saytim orqali muxlislarm, shogirdlarim bilan tez-tez muloqotda bo'laman.

«Tong yulduzi» muxlislari men bilan muloqot qilib tursalar, yanada xursand bo'lardim.

Feruz MATYOQUBOV, «Tong yulduzi» gazetasi rassomi:

— Farzandlaringiz haqida ham to'xtalsangiz...

— Ikki o'g'il va bir qizim bor. Ayni kunlarda o'g'llarim — Muhammadjon, Sodiqjon va qizim Asalxon bilan birgalikda «Nilufar» deb nomlangan qo'shiq kuylayapmiz. Shuningdek, Asalxon bolalar ko'rsatuvlarida o'zining kichik rollari bilan meni quvontirmoqda.

Shuningdek, bu uchrashuvda bugungi qo'shiqchilik san'ati, uning rivojlanish tamoyillari haqida bir-biridan keskin fikr-mulohazalar, tangidiy fikrlar, talab va istaklar bildirildi. Mehmon san'atkor o'zining yangi qo'shiqlari bilan suhbat ishtirokchilarini xushnud etdi. U o'zining beg'ubor bolalik yillariga hamisha hamroh bo'lib yashash istagini bildirib, 2010-yil uchun «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lganini alohida mammuniyat bilan izhor etdi.

Biz ham o'z navbatida san'atkorimizga Yangi yilda yangi yutuqlar, ijodiy parvozlar tiladik.

**BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV**

Dizaynerlar:
**Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV**
Navbatchilar:
**Feruza SOYIBJON qizi,
Yusuf ABDULLAYEV**

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va axborot agentligi
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 700129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 25057
Buyurtma N: J 8647



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'limagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.